

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Ne'matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Davron RO‘ZIYEV

Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Jamshid NIYOZOV

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
musiqa ta’limi va san’at yo’nalishi
1-bosqich magistri

MAQOMGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARINI SHASHMAQOMNING NASR BO‘LIMI VOSITASIDA AXLOQIY ESTETIK TARBIYALASH

Musiqa san’ati – nafosat tarbiyasining muhim omili bo‘lib, yosh avlodni kamolotga yetishishi uchun ta’sir etuvchi jarayon. Bu jarayon maktabdan boshlab shakllanadi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitib, butun hayoti mobaynida unga hamroh bo‘lib boradi. Musiqiy nafosat tarbiyasining asosi boshlang‘ich sinflardan shakllanadi. Musiqiy iqtidori bor o‘quvchilarni maqomga ixtisoslashtirilgan maktablarga jalb etish va bunda shashmaqomning nasr bo‘limi taronalari vositasida axloqiy-estetik rivojlantirish davr talabidir.

Kalit so‘zlar: *nafosat, kamol, madaniyat, tarbiya, mumtoz, an’anaviy musiqa, ijro jarayoni, san’at, madaniyat.*

Искусство музыки является важным фактором в воспитании утонченности и процессом, влияющим на развитие подрастающего поколения. Этот процесс формируется со школьной скамьи, обогащает внутренний мир подрастающего поколения и сопровождает его на протяжении всей жизни. Основу музыкально-деликатного воспитания составляют младшие классы. Привлечение учащихся с музыкальными способностями к макомным школам, а в данном случае развитие нравственно-эстетического через песни прозаического отделения шашмакома, является требованием времени.

Ключевые слова: *деликатность, совершенство, культура, воспитание, классическая, традиционная музыка, исполнительский процесс, искусство, культура.*

The art of music is an important factor in the cultivation of sophistication and a process influencing the development of the younger generation. This process is formed from the school bench, enriches the inner world of the younger generation and accompanies them throughout their lives. The basis of musical-delicate education is the junior classes. Attracting students with musical abilities to maqom schools, and in this case, the development of the moral and aesthetic through the songs of the prose department of shashmaqom, is a requirement of the time.

Key words: *delicacy, perfection, culture, education, classical, traditional music, performing process, art, culture.*

Kirish. Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi.

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” kitobida Amir Temur davrida o‘tkazilgan musiqiy anjumanlar haqidat o‘xtalib, “Yaxshi ovoqli xonandalar kuylashni boshlab, g‘azal-u naqsh aytur erdilar. Va turkum o‘g‘ul, xitoy-u arab va ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nag‘ma aytur erdi”, degan ma’lumotlarni keltiradi.

Asosiy qism. Ma’lumki, o‘zbek xalq musiqa merosi boy va serqirradir. Unda mujassamlashgan rang-barang xalq musiqiy namunalari asrlar osha avlodan-avlodga o‘tib rivojlanib kelgan. Shu bilan birga har bir janr o‘zining badiiy va estetik qiymatini asrab xalqimiz tomonidan ardoqlanib kelingan. Musiqiy merosimiz turli usullarda shakllanib, rivojlangan bo‘lsa, ularning biri xalq musiqasining murakkab namunasi bo‘lmish maqomlardir.

Maqomlar ijrochilikda “Mumtoz musiqa” va “Og‘zaki an’anadagi professional musiqa” nomlarida (atamalarida) yuritiladi. Xalqimizning bu boy va murakkab musiqiy merosi azaldan ustoz san’atkorlar tomonidan “og‘zaki an’anaviy” uslubda ustozdan shogirdga o‘tib bizgacha yetib kelgan. Bu an’anaga aylangan uslub hozirgi davrda ham asosiy omil sifatida ardoqlidir.

Bir necha yillardan mumtoz musiqa namunalari iste’dodli yosh xonanda va sozandalar tomonidan o‘zlashtirilishi an’anaga aylandi. Ayniqsa, maxsus musiqa maktablari, san’at, madaniyat va pedagogika kollejlari o‘qitilishi quvonarli. Yosh avlodga an’anaviy musiqadan saboq berishda asosan maqomlarga

tayaniladi. Chunki maqom azaldan xalqimizning turmush tarzi ifodalangan musiqiy janr sifatida xalq musiqasida doimo yetakchi bo'lgan. Bundan tashqari maqomlarda musiqa ilmiga, ijrochiligiga va musiqaning boshqa xususiyatlariga bog'liq olam-olam tushunchalar, ma'nolar va asoslar mujassamlashgan. Bu an'anani ma'lum darajada egallagan har bir san'atkor el-yurt mehrini qozonishi, tabiiy.

O'zbek xalqi tarixini sehrli ohanglarda mujassamlashtirgan maqomlar musiqiy ijodning rivojlangan turlaridan biri bo'lib, u asosan monodik, ya'ni bir ovoqlik uslubda yaratilgan va ijro etib kelingan. Har bir maqom o'zining aniq matniga ega bo'lgan, ya'ni g'azali bilan ijro etilgan. Ularda, asosan, Lutfiy, Atoyi, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Avaz O'tar, Ogahiy, kabi mumtoz shoirlarning g'azal va muxammaslaridan foydalanilgan.

Xalq musiqasining murakkab janri bo'lmish maqomlarni ijro etish xonandadan professional malaka talab qiladi. Bunga erishish uchun maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini ko'p yillar davomida maqom bilimdonlari bo'lmish ustoz hofiz va sozandalardan muntazam saboq olishni yo'lga qo'yish zarur. Maqomlarni ma'lum darajada tushunib yetishga, ularning barcha ichki xususiyatlarini o'rganishda, albatta, maqomlarning lad tarkibini, ritmik asoslarini amaliy o'zlashtirish darkor. Bundan tashqari maqomlar ijrosida xonandalik va sozandalikda mavjud barcha musiqiy bezaklar va xarakterli ohang-sayqallardan xabardor bo'lish kerak. Umuman, barcha an'anaviy ijrochilik asoslarini o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir an'anaviy ijrochi professional klassik musiqaning ichki lad xususiyatlari, tovushqatorlari, barcha tarkibiy qismlari, usul jihatlari, badiiy tomonlari to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lish bilan birga, maqomlarda mavjud xilma-xil variantlarni tushunib yetmoqlari kerak.

Maqomlarning ashula, ya'ni nasr bo'limining e'tiborga loyiq tomonlaridan biri shundaki, ular juda keng diapozonga ega. Ya'ni ikki oktava va undan ortiq ovoz yo'lini o'z ichiga oladi. Melodik jummlar o'ziga xos keng ko'lamligi bilan ajralib turadi va ijrochidan uzun nafas yo'lga ega bo'lishni talab qiladi. Bundan tashqari katta nafas yo'li bilan birga undan munosib foydalana bilish katta ahamiyatga ega. Chunki maqomlarning ijro jarayonida musiqiy ohanglarga rang -barang bezaklar berish, asosan, avj qismida amalga oshiriladi.

Xulosa. Maqomlar ijrosining bunday o'ziga xos jumboqlarini yechishda va klassik asarlarni qiyinchiliksiz ravon ijrosiga erishishda har bir hofiz yuqori pardalarda mohirona kuylash xususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Adabiyotlar

1. Tursunov. Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. –Toshkent, 2003.
2. Matyoqubov O. Maqomot. –Toshkent, 2004.
3. Matyoqubov O. Shashmaqom saboqlari// 2-kitob. 2005
4. Mannopov S. So'nmas navolar. -Farg'ona, 2003.
5. Abdullayev R. Milliy istiqlol va musiqa. -T., 2002.